

## O‘ZBEK TILIDAGI SO‘Z BIRIKMALARINI MODELASHTIRISH MUAMMOLARI MASALASI

**Xudayarova Sabura**

ToshDO‘TAU Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi  
1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Matnlarni avtomatik tahlil va tahrirlash, shu bilan birga ularni avtomatik tarjima qilish jarayonida sintaktik birliklar, xususan, so‘z birikmasi alohida o‘rin tutadi. Bu esa so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish usullari, so‘z birikmalarining hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi turli elementlar hamda tobe va hokim qismlarning ma‘lum bir so‘z turkumlari bilan ifodalanishiga ko‘ra keltirilgan turli tasniflar asosida so‘z birikmasining muayyan bir yagona tasnifini belgilash, ushbu tasnifga tayangan holda so‘z birikmalarining aniq va qat’iy lisoniy sintaktik qoliplar [LSQ]ni shakllantirish mazkur maqolada tahlil etildi.

**Kalit so‘zlar:** *So‘z birikmasi, modelashtirish, lisoniy sintaktik qolip, avtomatik tahlil.*

**Abstract.** In the process of automatic analysis and editing of texts, as well as their automatic translation, syntactic units, in particular, word combinations, have a special place. This is a word on the basis of different classifications given according to the ways of connecting words, various elements involved in the formation of word combinations, and the representation of subordinate and dominant parts by certain word groups. Determination of a certain single classification of the combination, the formation of clear and strict linguistic syntactic patterns of word combinations based on this classification was analyzed in this article.

**Key words:** *Syntax, modeling, linguistic syntactic pattern, automatic analysis.*

**Абстракт.** В процессе автоматического анализа и редактирования текстов, а также их автоматического перевода особое место занимают синтаксические единицы, в частности словосочетания. Это слово на основе различных классификаций, данных по способам соединения слов, различным элементам, участвующим в образовании словосочетаний, представлению придаточных и господствующих частей определенными словосочетаниями. в данной статье проанализировано формирование четких и строгих лингвистических синтаксических моделей словосочетаний на основе этой классификации.

**Ключевые слова:** *Синтаксис, моделирование, языковая синтаксическая модель, автоматический анализ.*

Sintaktik tahlilni amalga oshiruvchi dasturiy ta‘minot uchun so‘z birikmalarining LSQlari shakllantirilar ekan, bunda barcha bir-biriga mos keluvchi,

shu bilan birga bir-biridan farq qiluvchi soʻz birikmasiga doir turli tasniflarni oʻrganib, istisnoli holatlar bartaraf etilgandagina, bizningcha, masalaga toʻgʻri yondashilgan boʻladi. Soʻz birikmasining LSQlarini modellashtirish esa sintaktik analizatorning bir qismi boʻlgan soʻz birikmasini tahlil qiluvchi dasturiy taminot uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Til birliklarini modellashtirish quyidagi umumiylik, xususiylik hamda oʻzgarmaslik kabi jihatlari bilan xarakterlanadi. Ushbu jihatlarni soʻz birikmasi doirasida koʻrib oʻtamiz: aqli bola: 1. umumiylik tobe soʻz + hokim soʻz = T+H 2. xususiylik sifat +ot=S+OT 3. oʻzgarmaslik ushbu birikma oʻrnida boshqa shu kabi sifat+ot koʻrinishidagi koʻplab birikmalarni hosil qilish mumkun, biroq LSQ ham va unga asoslangan model ham oʻzgarmaydi. Soʻz birikmalari turli soʻz turkumlari hamda biriktiruvchi elementlarning turli grammatik koʻrsatkichlar bilan ifodalanishi LSQlar hamda modellarning oʻzgarishiga sabab boʻladi. Soʻz birikmasining LSQlari hamda uning modellari haqida soʻz borar ekan, ushbu fikrlarga eʼtiborimizni qaratmoqchimiz. “Soʻz birikmalarining modeli [qolipi] tarixan tayyor holda mavjud va odamlar shu qolipga suyangan holda, soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydilar. Shu jihatdangina soʻz birikmalari doimiy xarakterga ega boʻladi.” Yuqorida soʻz birikmasi qolipi va modeli haqida fikr yuritilar ekan, qolip va model tushunchasi bir maʼnoda qoʻllanilganligini koʻramiz. Bundan tashqari A.Rahimov “Kompyuter lingvistikasi asoslari” oʻquv qoʻllanmasida ham model tushunchasi qolip va andoza soʻzlari bilan mos kelishini aytib oʻtadi. Ushbu tushunchalar bir maʼnoni anglatgandek boʻladi nazarimizda, biroq ular tilshunoslik nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Masalan, maktabga bormoq kabi soʻz birikmasining qolipi quydagicha: ot+ga+feʼl ushbu qolipni ifodalash uchun turli modellardan foydalanish mumkin. Soʻz birikmasini modellashtirishda, asosan anʼanaviy tilshunoslikda keltirilgan soʻz birikmalarining qoliplari oʻrganildi. Bu oʻrinda quyidagi tasnifni koʻrib oʻtamiz:

Soz birikmalari quyidagi xususiyatlari asosida tasnif qilinadi:

1. Soʻz birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga koʻra.
2. Soʻz birikmalarining tuzilishiga koʻra.

Soʻz birikmalari qismlarining grammatik tabiatiga koʻra tasnif qilinganda, hokim aʼzoning qaysi soʻz turkumidan ekanligi, tobe aʼzoning sintaktik vazifasi asosga olinadi.

Soʻz birikmalari hokim qismning qaysi soz turkumidan ekanligiga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi: 1) otli birikma; 2) feʼlli birikma; 3) sifatli birikma; 4) ravishli birikma; 5) modal soʻzli birikma.

1. Otli birikma. Bunday birikmaning hokim soʻzi vazifasida ot, otlashgan soʻzlar keladi va u quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi:

- hokim qism vazifasida ot keladi: *gʻayratli odam, samimiy inson, ezgu niyatli kishi.*
- hokim qism sifatida olmosh keladi: *bolaning oʻzi, Karimaning oʻzi.*
- hokim soʻz sifatida otlashgan sifat keladi: *kishilardan eng mard, qizlarning sarasi.*
- hokim qism vazifasida otlashgan son keladi: *talabalarining beshtasi, oʻquvchilardan biri.*

- hokim qism vazifasida otlashgan olmosh keladi: *tilaklarning barchasi, kutib oluvchilarning hammasi*.
- hokim soʻz vazifasida otlashgan sifatdosha keladi: *onamlarning aytganlari, bolalarning oʻqiyotgani va h.k.*
- hokim qism vazifasida otlashgan ravish keladi: *koʻp soʻzning oʻzi, ishlarning koʻpi*.
- hokim soʻz sifatida otlashgan undov soʻz keladi: *ularning dod-voyi, bolalarning urasi*.

- hokim soʻz vazifasida otlashgan taqlid soʻz keladi: *otlarning dupur-dupuri, toʻplarning gumbur-gumburi*. Koʻrinadiki, otli soʻz birikmasi qismlari bitishuv, muvofiqlashuv va boshqaruv yoʻli bilan grammatik aloqaga kirishadi..

2. Feʼlli birikma. Bunday birikmaning hokim qismi feʼl bilan ifodalanadi: *tez ishlamoq, oldinda yurmoq, diqqat bilan tinglamoq, kulib gapirmoq*.

Feʼlli birikmaning qismlari oʻzaro bitishuv va boshqaruv yoʻli bilan boglanadi.

3. Sifatli birikma. Mazkur birikmada hokim soʻz otlashmagan sifat bilan ifodalanadi, birikmaning qismlari boshqaruv yoʻli bilan sintaktik munosabatga kirishadi: *akasidan kuchli, singlisidan ziyrakroq*.

4. Ravishli birikma. Bunday birikmaning hokim soʻzi otlashmagan ravish bilan ifodalanadi. Ravishli soʻz birikmalarida tobe va hokim qismlar oʻzaro boshqaruv yoʻli bilan bogʻlanadi: *raketadan tez, toshbaqadan sekin*.

5. Modal soʻzli birikma. Bunda modal soʻz birikmaning hokim soʻzi sifatida keladi. Birikma boshqaruv yoʻli bilan tuziladi: *bizga kerak, oʻquvchilarda bor*.

Soʻz birikmalari, tobe qismning sintaktik vazifasiga koʻra, quyidagi turlarga boʻlinadi: 1) aniqllovchili birikma; 2) toʻldiruvchili birikma; 3) holli birikma.

1. Aniqllovchili birikma. Bunday birikmalarning tobe qismi aniqllovchining barcha turlari vazifasini bajaradi. Shunga koʻra ularni: 1) sifatlovchili birikma, 2) qaratuvchili birikma, 3) izohlovchili birikmalarga ajratish mumkin. Masalan: *yozma ish, ilmiy maqola, beshta kitob, allaqanday ovozlari* – sifatlovchili birikma; *iqtisodiyotning taraqqiyoti, maktab hovlisi* - qaratuvchili birikma; *oʻqituvchi Salimova, professor Qodirov* - izohlovchili birikma.

Aniqllovchili birikma bitishuv va boshqaruv yoʻli bilan tuziladi.

2. Toʻldiruvchili birikma. Tobe qismi toʻldiruvchi vazifasini bajaradigan soʻz birikmasi toʻldiruvchili birikma deb yuritiladi. Bunda qismlar oʻzaro boshqaruv yoʻli bilan birikadi. Masalan: *yoshlarga nasihat qilmoq, odamlarni qadrlamoq, talabalar uchun darslik, ilm-fan haqida soʻzlamok*.

Soʻz birikmalarining barcha LSQlarini toʻplash bilan birga oʻzbek tilining xususiyatlarini aks ettiruvchi ramzlar orqali ushbu qoliplarga modellar taklif etildi. Lisoniy sintaktik qoliplarni shakillantirish hamda modellashtirish jarayonida baʼzi muammoli masalalar koʻzga tashlanadi. Modellashtirishdagi ushbu muammoli jihatlarni bartaraf etish sintaktik tahlilni amalga oshiruvchi dasturni har tamonlama aniq ishlashini taʼminlaydi.

1-muammoli vaziyat:

Tobe soʻz va hokim soʻz shaxs va sonda moslashib, qaratqich kelishigi va egalik qoʻshimchalari yordamida birikish orqali moslashuvli birikmalarni hosil qiladi. Ushbu birikmalarning qolipi quyidagicha ifodalanadi: tobe soʻz+ning +hokim soʻz +egalik qoʻshimchalari bu qolipning umumiy koʻrinishi boʻlib, tobe va hokim qismlar turli soʻz turkumlari orqali ifodalanadi. Masalan, ot +ning +ot +egalik qoʻshimchasi *oʻquvchining savoli, maktabning bogʻi* qaratqich kelishigi koʻp hollarda belgisiz qoʻllanilganda ham birikma mazmuniga taʼsir koʻrsatmaydi. *Baxt manzili, koʻcha eshigi* kabi birikmalarda qaratqich kelishigi ifodalanmagan boʻlsa-da, qaratqich va qaralmish munosabati mavjud. Tilimizda shunday birikmalar borki, yuqoridagi *baxt manzili, koʻcha eshigi* kabi birikmalar qolipiga mos keladi, biroq mazmun jihatdan farqlanadi. *Navoiy kutubxonasi, bobur bogʻi* kabi birikmalar mazmunan atalganlik, umundan ajralganlikni ifodalashi bilan birga biron bir obyektни nomlab kelmoqda. Shunday ekan, ushbu birikmalar soʻz birikmasi doirasida emas, balki NERlar sifatida oʻrganilishi maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz.

### 2-muammoli vaziyat:

Oʻzbek tili grammatikasi darsligida soʻz birikmalarining turli konstruksiyalari alohida tahlil qilingan boʻlib, bu oʻrinda *zavq bilan oʻynamoq, qunt bilan oʻqimoq* kabi birikmalarning qoliplariga eʼtiborimizni qaratmoqchimiz. Ushbu birikmalar tahlil qilinar ekan bitishuv yoʻli bilan birikkanligi hamda *zavq bilan, qunt bilan* soʻzlari *bilan* koʻmakchisi bilan birgalikda harakat holatini bildirib, ravishni ifodalalashi taʼkidlanadi. Bilamizki, *qalam bilan chizmoq, pichoq bilan kesmoq* kabi birikmalar koʻmakchi orqali bogʻlangan boʻlib, boshqaruvli birikmani hosil qiladi. Bu oʻrinda, *zavq bilan oʻynamoq* hamda *qalam bilan yozmoq* kabi soʻz birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplariga eʼtibor qaratilsa, ushbu birikmalar qolipi shaklan bir-biriga oʻxshash ekanligi koʻzga tashlanadi. *Zavq bilan oʻynamoq* ot +koʻmakchi +feʼl, ushbu qolipning modeli quyidagicha: [OT<sub>k</sub> +F], *pichoq bilan kesmoq*: ot +koʻmakchi +feʼl ushbu qolip modeli ham [OT<sub>k</sub> +F] koʻrinishida shakllantiriladi. Matnlar sintaktik jihatdan avtomatik tahlil qilinar ekan, birikma turlarini aniqlash jarayonida keltirilgan qolipga mos ravishda shakllanuvchi shu kabi barcha birikmalar, boshqaruvli birikmalar sifatida ajratiladi. Shunday ekan, mavhum otlar oldidan bilan koʻmakchisi kelganda ravishni ifodalovchi soʻzlar guruhini shakllantirish va ularning alohida oʻziga xos modellarini ishlab chiqish orqali koʻzlangan maqsadga erishish mumkin boʻladi.

### 3-muammoli vaziyat:

1. oʻqib chiqmoq [koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi]; 2. kulib gapirmoq [feʼl+ib +feʼl] soʻz birikmasi bir qaraganda ushbu birliklarni bir-biridan farqlab olish qiyin. Koʻmakchi feʼlli soʻz birikishidan hosil boʻlsa, KFSQ esa yetakchi hamda koʻmakchi feʼldan tashkil topadi. Koʻmakchi feʼl oʻzining maʼno mustaqilligini butkul yoʻqotadi. Bir-biridan farq qiluvchi birliklarni shakllantiruvchi qoliplarning oʻxshash jihatlarini koʻrib oʻtmoqchimiz. 1. yetakchi feʼl +ib +koʻmakchi feʼl, feʼl +ib +feʼl koʻrinadiki qoliplar bir-biridan shaklan farq qilmaydi. Berilgan qoliplar asosida modellar ishlab chiqilib, sintaktik tahlilni amalga oshiruvchi dastur bazasiga

kiritilar ekan, sintaktik tahlil jarayonida fe'l +ib +fe'l ko'rinishidagi so'z birikmalarini ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidan farqlashi qiyinlashadi va so'z birikmalarini aniqlash qobiliyati pasayadi. O'zbek tilida aytib bermoq, tutib olmoq, ko'rib chiqmoq kabi bir qancha fe'llar mavjud bo'lib, ularning barchasi yig'ilib ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi guruhini shakllantirish bilan bir qatorda ularning o'ziga xos alohida modellarini ishlab chiqilishi masalaning hal etilishidagi yechimlardan biri bo'ladi, deb o'ylaymiz.

#### 4-muammoli vaziyat:

Ochiqdan ochiq, tomdan tomga, o'zidan o'zi kabi qo'shma so'zlar qismlari ajratib yoziladi. Ushbu qo'shma so'zlar ham bir qancha so'z birikmalarini hosil qiladi. Masalan: tomdam tomga sakramoq, ochiqdan ochiq gapirmoq shu kabi bir qancha so'z birikmalarini modellashtirish biroz munozarali fikrlarni yuzaga keltiradi. Mana shunday murakkablikga ega bo'lgan shu bilan birga istisnoli holatlarni yuzaga keltiruvchi birikmalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari so'z birikmalari sodda hamda murakkab birikmalarga ajratilar ekan, murakkab birikmalarni modellashtirishda aniq va qat'iy to'xtamga kelinish lozim, shundagina o'zbek tilidagi barcha so'z birikmalarining mukammal modeli yaratiladi.

#### 5-muammoli vaziyat:

So'zlar o'zaro nafaqat grammatik jihatdan, balki leksik-semantik jihatdan mos ravishda bog'langandagina so'z birikmasini hosil qiladi. Ko'rinadiki, so'z birikmalarining bog'lanishida leksik jihat ham muhim rol o'ynaydi. stolning qo'li, otning barmog'i kabi birikmalar shaklan grammatik jihatdan mos ravishda bog'langan bo'lib, leksik jihatdan bog'lanish imkoniyatiga ega emas. Bunday birikmalarni sintaktik tahlilni amalga oshiruvchi dastur orqali aniqlash anchayin murakkab masala. Ushbu masalaning yechimi leksik tahlilni amalga oshiruvchi dasturning yaratilishi bilan bog'liq. So'z birikmalarini modellashtirishda barcha xususiyatlar e'tiborga olinishi, mukammal dasturning yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'z birikmalari va uning lisoniy sintaktik qoliplarini o'rganib, tahlil qilar ekanmiz bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar talaygina. Ushbu vazifalarni bajarilishi esa ba'zi muammolarning yechimi bo'lib xizmat qiladi. So'z birikmalarining yagona va optimal modellarini ishlab chiqish hali ham yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida so'z birikmasi tuzilish strukturasiga ko'ra, grammatik munosabatga kirishishiga ko'ra, ba'zi shakllarda so'zga, ba'zi o'rinlarda gapga tenglanishiga ko'ra murakkab tuzilma hisoblanadi. Ular uchun ayni bir qolipni belgilab olish qiyin hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. - Toshkent, 1965.



3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, 1995.
4. Muhiddinova H., Xudoyberganova D. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.
5. O'zbek tili grammatikasi. II tom. (mualliflar jamoasi). – Toshkent, 1978.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
7. Sharipov M. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 1918.
8. Toshnazarova D., Ibragimova A. So'z birikmalari ta'rifiga yangicha yondashuv. Til va adabiyot ta'limi jurnali, 4-son. – Toshkent, 2020.
9. Elov B., Hamroyeva Sh., Xusainova Z. NLP (tabiiy tilga ishlov berish)ning vazifalari va zamonaviy yondashuvlar. TerDU, FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM. 2022, 5-6.